

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

Oriental universiteti Biznes va boshqaruv kafedrasida dotsent v.b., PhD

shakhnozakurbanova88@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni boshqarish, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik, texnoparklar va startap ekotizimlari faoliyati o‘rganiladi. Maqolada xorijiy tajribalarni o‘zbek sanoat korxonalariga joriy etishning samarali yo‘llari, innovatsion muhitni shakllantirish omillari hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Natijada, milliy sanoatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion faoliyat, sanoat korxonalari, xorijiy tajriba, texnopark, startap, ilmiy-tadqiqot, innovatsion muhit, raqobatbardoshlik, texnologik rivojlanish.*

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Курбанова Шахноза Юлдашбаевна

и.о. доцента кафедры бизнеса и управления Восточного университета, PhD

shakhnozakurbanova88@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется передовой зарубежный опыт развития инновационной деятельности на промышленных предприятиях. В частности, в развитых странах, таких как США, Германия, Япония и Южная Корея, исследуются вопросы управления инновациями, кооперации исследовательских центров с производством, деятельность технопарков и стартап-экосистем. В статье рассматриваются эффективные пути внедрения зарубежного опыта на узбекских промышленных предприятиях, факторы формирования инновационной среды и значение механизмов государственной поддержки. В

результате разработаны практические рекомендации по развитию инновационной деятельности в отечественной промышленности.

Ключевые слова: *инновационная деятельность, промышленные предприятия, зарубежный опыт, технопарк, стартап, исследования, инновационная среда, конкурентоспособность, технологическое развитие.*

FEATURES OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITY AT INDUSTRIAL ENTERPRISES

Kurbanova Shakhnoza Yuldashbayevna

Acting Associate Professor of the Department of Business and Management at Eastern University, PhD

shakhnozakurbanova88@gmail.com

Abstract: This article analyzes advanced foreign experiences in the development of innovative activities in industrial enterprises. In particular, in developed countries such as the USA, Germany, Japan and South Korea, innovation management, cooperation between research centers and production, the activities of technoparks and startup ecosystems are studied. The article highlights effective ways to introduce foreign experiences to Uzbek industrial enterprises, factors for forming an innovative environment, and the importance of state support mechanisms. As a result, practical recommendations for the development of innovative activities in the national industry have been developed.

Keywords: *innovative activities, industrial enterprises, foreign experience, technopark, startup, research, innovative environment, competitiveness, technological development.*

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida qurilish materiallari sanoatini jahon qurilish kompleksining texnologik taraqqiyoti tamoyillariga muvofiq holda rivojlantirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy shakl va usuldagi qurilish materiallari ishlab chiqarishni tashkil qilish va mahsulotlar sifatini keskin darajada oshirish yuzasidan keng miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar uchun rivojlanishning innovatsion tomoni muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiqotning dolzarbligidan dalolat beradi. Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash kerakki, qurilish materiallari sanoati innovatsiyalarni joriy etishda ilg'or tarmoq hisoblanmaydi.

Bu butun dunyoda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun ham xos xususiyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335 sonli “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida: “zamonaviy innovatsion ishlanmalarni hisobga olgan holda qurilish me‘yorlari va qoidalarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish, yangi turdagi energiya tejamkor va ekologik jihatdan xavfsiz qurilish materiallarining tezkorlik bilan amaliyotga joriy etilishi va qo‘llanishini ta‘minlash”¹ vazifasi qo‘yilgan [1].

Chunki XXI asr innovatsiyalarni barcha sohalarga keng joriy etish, shu bilan birga kam resurs sarflab, yuqori foydaga erishishni, ekologiya va atrof-muhitga kam zarar keltiruvchi, energiya samarador mahalliy xomashyodan tayyorlangan qurilish materiallariga ehtiyojni orttirib bormoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi innovatsion boshqaruvning mavjud xususiyatlari yangi mahsulotni yaratish va muvaffaqiyatli tijoratlashtirish o‘rtasidagi vaqt oralig‘ini qisqartirish maqsadida munosib shart-sharoitlarni yaratish uchun qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi. Qurilish materiallari sanoatida innovatsion faoliyatning yuqori ahamiyati qurilish narxini pasaytirish uchun unga xos bo‘lgan potensial bilan izohlanadi: qurilish materiallarining xarajatlari tayyor binolar va inshootlar narxining 60-70 foizini tashkil qiladi. Umuman olganda, qurilish materiallari ishlab chiqarish yuqori material zichligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Qurilish materiallari sanoati — sanoat, uy-joy qurilishi, qishloq xo‘jaligi va boshqa qurilish sohalari uchun qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog‘i bo‘lib, u bir qancha tarmoqlarni o‘z ichiga oladi [2]. Sement, asbest-sement shiferi, asbest-sement quvurlari, devor materiallari (g‘isht), ohak, gips, deraza oynalari, yumshoq yopma materiallar, tabiiy toshlardan qoplama materiallar, bezak hamda pol uchun sopol (keramik) plitalar, isitkich radiatorlar va konvektorlar, chinni-fayans sanitariya-qurilish buyumlari, linoleum, noruda qurilish materiallari (maydalangan, chaqilgan tosh, qum, shag‘al, qum-shag‘al aralashmasi) va boshqalar qurilish materiallari sanoatining asosiy mahsulotlari”² hisoblanadi. Qurilish materiallari sanoati har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shadi va barqaror rivojlanishda muhim ahamiyatga ega.

L.Szarnecki va D.Van Gemertning ta‘kidlashicha, “Innovatsiyalarga nisbatan qurilish sanoatining munosabati nisbatan konservativdir va u sanoat o‘zgarishlariga tezda javob bera olmaydi” [3].

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4335 sonli qarori.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Qurilish_materiallari_sanoati

D. Ashokkumar fikricha “Qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanib, uning mahsulotlari qurilish ishlarining tezligi va sifatini belgilashini ta’kidlaydi” [4].

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mahalliy iqtisodchilardan Sh.Kurbaniyazov fikriga ko‘ra “Qurilish materiallari sanoatini davlat iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan soha”³ ekanligini ta’kidlaydi [5].

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qurilish materiallari sanoati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga erishishda poydevor sanoat tarmog‘i sifatida xizmat qiladi. Ushbu soha qurilish bilan birga dunyo mamkatlari yalpi ichki mahsulotning salkam 9% ini tashkil etadi. Dunyo mamlakatlarida ushbu sanoatning rivojlanib borishi va salqmoqli ulushi milliy iqtisodiyotlardagi ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat berib, shu jihatdan uning turli rivojlanish ko‘rsatkichlarini modellashtirish va prognozlashtirish muhim vazifa hisoblanadi [6].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish uchun qiyosiy tahlil, ilmiy-abstrakt, va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Maqsadli tahlil Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQShning innovatsion siyosatlarini hamda ularning sanoat sektoriga ta’sirini o‘rganishga qaratildi.

Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlar O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani milliy sharoitlarga adaptatsiya qilish imkoniyatlari o‘rganildi.

Natijada, innovatsion boshqaruv, texnologik transfer va davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi aniqlanib, ularni O‘zbekiston sanoat siyosatida qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sanoat korxonalari milliy innovatsion tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning innovatsion loyihalarga va ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (ITTKI) yo‘naltirilgan investitsiyalari hajmi tegishli tarmoqlarning texnologik rivojlanishiga yetarli darajada hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Bunday ta’sirning mexanizmlari texnologiyalar transferi va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, innovatsion mahsulotlarga buyurtma berish, korxonalar faoliyat yuritadigan bozorlarda raqobat muhitini shakllantirish, boshqa subyektlarni shunga o‘xshash innovatsiyalarni joriy etishga undash orqali amalga oshirilishi mumkin [7]. Sanoat korxonalarining texnologik strategiyalarini ishlab chiqishda va resurslarni jamlash lozim bo‘lgan ustuvor texnologik yo‘nalishlarni aniqlashda

³ Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. //Biznes-ekspert, 2017, №11(119).

ularning innovatsion rivojlanish harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi rolini hisobga olish zarur [8]. Biroq strategik qarorlar qabul qilishda sanoat korxonalarining innovatsion faolligini to'g'ri baholash lozim. Korxonalarining innovatsion faoliyatini o'lchashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ammo innovatsion faollik darajasini to'liq baholash imkonini beradigan yagona yondashuv hali ishlab chiqilmagan. Ko'pincha adabiyotlarda quyidagi ko'rsatkichlarga asoslangan ayrim yondashuvlar keltiriladi: ITTKI xarajatlari, patentlar soni, patentlardan iqtiboslar, bozorga kiritilgan yangi mahsulotlar soni va boshqalar [9]. Ma'lumki, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bu globallashtirish, raqobatning kuchayishi, raqamlashtirish, shuningdek, innovatsion rivojlanishning o'sib borishi hisoblanadi. Korxonalarining innovatsion faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning xalqaro tajribasi uzoq yo'lni bosib o'tgan va innovatsion rivojlanishning quyidagi modellari mavjudligini ko'rsatadi [10].

1-jadval

Innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy modellari⁴

| Model | Mamlakatlar | Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari |
|------------------|--|---|
| Anglosakson | AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya | Davlat, venchur fondlari, xususiy investorlar, biznes-angellar, texnoparklar |
| Yevrokontinental | Ispaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya | Davlat, banklar, davlat-xususiy sheriklikning turli shakllari |
| Skandinaviya | Daniya, Shvetsiya, Finlandiya | Texnologik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi, yirik korxonalar atrofida klasterlar tashkil etish |
| Sharqiy Osiyo | Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya | Bank sektori bilan bog'liq yirik ko'p tarmoqli korporatsiyalar, xususiy ixtisoslashgan ilmiy-texnologik agentliklar va inkubatorlar, biznes-angellar |
| Janubiy Osiyo | Hindiston, Xitoy, Shri-Lanka | Davlat, davlat va xususiy trening va qayta o'qitish institutlari, xalqaro korporatsiyalar, tijorat banklari, sanoat korxonalar atrofidagi klasterlar, biznes-inkubatorlar, ilmiy-texnologik va biznes-parklar |

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri davlatning korxonani innovatsion yo'nalishlarga burishga ko'maklashish va innovatsion muhitni shakllantirish hisoblanadi. Masalan, AQShda iqtidorli yoshlarni innovatsion loyihalarni amalga oshirishga jalb qilishmoqda, bunday iste'dod egalarini tadqiqot va ishlanmalarga bo'lgan davlat ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat yurituvchi yirik innovatsion korxonalar ishiga jalb qilishmoqda. AQShda innovatsion

⁴ Muallif ishlanmasi

korxonani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus tarmoq dasturlari joriy etilgan: “Mudofaa kreditlari va texnik yordam” va boshqalar [11]. Innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi korxonaning vazifasi bozorlarni yangi mahsulotlar bilan to‘ldirish va ilmiy-texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etishdan iborat [12].

AQSH Milliy ilmiy fondining ta’kidlashicha, 100 kishigacha bo‘lgan firmalarning innovatsion natijadorligi yirik korxonalarga (ishlovchilar soni 1000 kishidan ortiq) qaraganda 4 baravar ko‘p [13]. Shu bilan birga, kichik tuzilmalarda innovatsiyalarni ishlab chiqish muddatlari yirik tuzilmalarga qaraganda 2 baravar kam (mos ravishda 2 va 4 yil)⁵.

Yevropada boshqacha, yanada moslashuvchan – “kontinental” deb ataladigan model qo‘llaniladi. Ushbu modelni qurish tamoyillarini davlatning sanoat korxonasi bilan hamkorligi sifatida tavsiflash mumkin. Yevropada davlat tomonidan sanoat korxonalarini kreditlash va bank kreditlari bo‘yicha davlat kafolatlarini berish keng tarqaldi. Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari ishtirokidagi konsorsiumlar va hamkorlik bunday imtiyozlarning ustuvor egalaridir [14].

Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda Yevropa mamlakatlarining sanoat korxonalarini Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Finlyandiyani muvaffaqiyatli deb atash mumkin. Masalan, Germaniyada sanoat korxonasida innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator davlat dasturlari joriy etilgan. Masalan, “O‘z biznesini ochish uchun jamg‘armalarni rag‘batlantirish” dasturi o‘z ishini yoki “start-ap” loyihalarini ochish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Buyuk Britaniyada sanoat korxonasi uchun davlat tomonidan tartibga solish tizimini soddalashtirish, innovatorlar, xususiy investorlar va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari qo‘llanilmoqda [15].

Osiyo modeli yangiliklarni yaratishdan ko‘ra, ularni chet eldan o‘zlashtirib, keyinchalik takomillashtirishga asoslanadi. Bu modelning o‘ziga xos xususiyati xorijiy kapital va texnologiyalardan faol foydalangan holda eksport bozoriga yo‘naltirilganligidir.

Bu xususiyat innovatsion rivojlanishi jadal bo‘lgan Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarga xosdir. Bu davlatlarda kichik va o‘rta biznesning ilmiy-tadqiqot ishlari yirik ko‘p tarmoqli korporatsiyalar orqali moliyalashtiriladi. Davlat esa bank sektori orqali kichik va o‘rta biznesni uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta’minlaydigan kuchli moliyaviy tizimga ega. Osiyo modeli innovatsiyalarni ishlab chiqarishga tez joriy etish imkonini beradi. Ko‘rib turibmizki, bu davlatlar qisqa vaqt ichida texnologik va sanoat sohasida katta yutuqlarga erishdilar. Bunda ular tomonidan xorijiy ilmiy-texnikaviy yutuqlarni o‘zlashtirish va

⁵ Кукин Л.А. Специфические особенности управления инновациями в сфере производства строительных материалов / Л. А. Кукин // Экономика, предпринимательство и право. – 2023. – Т. 13, № 12. – С. 5869-5884.

takomillashtirish amaliyoti muhim rol o'ynadi. Bu esa ularga ommaviy talabga ega bo'lgan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sohasida ustunlikka erishish imkonini berdi.

AQSH qurilish materillari sanoati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifati bilan butun dunyoga mashhur. Ushbu bozorning katta qismini qurilish materiallari ishlab chiqarish egallaydi. Bu sohadagi eng mashhur korxonalar orasida Owens Corning ham bor. U 1938-yilda tashkil etilgan va 1955-yildan beri Fortune 500 (AQShdagi eng yirik korxonalar reytingi) ning yillik a'zosiga aylangan. Owens Corning izolyatsiya tizimlari, kompozit yechimlar, tomlar va asfalt ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Amerikaning yana bir mashhur qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonasi Vulcan Materials Company hisoblanadi. Bugungi kunda xodimlar soni 12 ming nafarga yetadi, yillik daromad esa 7 milliard dollardan oshadi [16]. Ishlab chiqaruvchi har yili qurilish materiallari uchun millionlab tonna shag'al, qum va shag'al yetkazib beradi⁶.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish Germaniya sanoatida muhim o'rin egallaydi. Bu mamlakat hududida butun dunyo uchun mahsulotlar tayyorlaydigan bir nechta yirik zavodlar mavjud. Eng yirik ishlab chiqaruvchilar orasida Heidelberg Materials alohida ajralib turadi. Korxonaga 1837-yilda asos solingan [17]. Hozirgi kunda xodimlar soni 50 000 kishidan oshib ketgan va yillik pul aylanmasi 21 milliard yevroni tashkil etadi. Asosan nemis ishlab chiqaruvchisi sement, beton va klinker tayyorlaydi. Quvvatlari Germaniya hududida joylashgan yana bir mashhur ishlab chiqaruvchi - Knauf hisoblanadi. Ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar orasida gipsokarton listlar, quruq qurilish aralashmalari va izolyatsion materiallar bor [18].

XULOSA

Xorijiy mamlakatlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha yetakchi kompaniyalarning korporativ va innovatsion strategiyalarining asosiy tamoyillari va maqsadlari, innovatsion ishlanmalarni olish manbalari, ilmiy-tadqiqot bo'limi va boshqa biznes bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tamoyili, innovatsion ishlanmalarni sinovdan o'tkazish uchun eksperimental aktivlarning mavjudligi, innovatsion ishlanmalarni boshqarish uchun kadrlar siyosati va kompaniyaning innovatsion rivojlanishini moliyalashtirish tamoyillari va manbalari kabi mezonlar asosida tadqiq etildi. Tadqiqot natijasida, innovatsion loyihalar uzoq muddatli istiqbolda o'sishining asosiy manbayi hisoblanishi, innovatsion loyihalarning asosiy yo'nalishlari qurilish materiallarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni izlab topish, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda loyihaviy yondashuv, innovatsiyalarni joriy etish jarayonining globallasuvi ekanligi aniqlandi.

⁶ Baxtiyorov B. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.d (DcS) diss. Toshkent – 2023. – B. 15.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4335 sonli qarori.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qurilish_materiallari_sanoati
3. Czarnecki L., Van Gemert D.A. Innovation in construction materials engineering versus sustainable development // Bulletin of the Polish Academy of Sciences. Technical Sciences. – 2017. – № 6. – p. 765–771.
4. Ashokkumar D. Study of quality management in construction industry // International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology. – 2014. – № 1. – p. 36–43.
5. Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. // Biznes-ekspert, 2017, №11(119).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. -B. 23.
7. Михайлов К.В. Организация управления риском и инновациями в стратегии предприятия. Сборник трудов на тему “Актуальные проблемы развития экономики современной России”. – Москва: МИПК, 2004.
8. Навоева О.В. Механизм повышения инновационной активности организации. – Магадан: Кордис, 2010. – 135 с.
9. Вахтиyorov В. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.f.d (DcS) diss. Toshkent – 2023. – B. 15.
10. Doniyorova Z. Sanoat korxonalari rivojlanishining innovatsion strategiyalarini takomillashtirish. i.f.f.d (PhD) diss. Toshkent – 2022. – B. 15.
11. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
12. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti.
13. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.
14. Кукин Л.А. Специфические особенности управления инновациями в сфере производства строительных материалов / Л. А. Кукин // Экономика, предпринимательство и право. – 2023. – Т. 13, № 12. – С. 5869-5884.
15. Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. // Biznes-эксперт, 2017, №11(119).
16. Kurbanova Sh.Y., Alimova D.T. Legal regulation of investment activities in the republic of Uzbekistan // SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, VOLUME 2, ISSUE 12, DECEMBER 2023, pages:98-103. URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10382039>

17. Kurbanova Sh.Y., Karimqulov J.I., Alimova D.T. Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalar ko'rsatkichi tahlili(Sirdaryo viloyati misolida) // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, sentyabr, № 9-son. 454-460-betlar.

18. Kurbanova Sh.Y. Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati samaradorligini baholashning xususiyatlari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024, 4(10), 139-145 betlar.